



TA'LIMDA YANGI METODLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Tursunova Surayyo G'offor qizi

Qashqadaryo viloyati Qarshi tuman 36-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta'limga yangicha metodlarning o'ziga xos jihatlari va uning ta'limgni rivojlantirishdagi o'rni va ro'li haqida so'z boradi. Shuningdek, uning zamonavity ta'limga tizimida ahamiyati haqida bir muncha fikr va mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Zamonaviy ta'limga, interfaol metod, bilim, ko'nikma, usul, pedagogik texnologiya, innovatsiya, pedagogik mahorat*

Annotation. *This article discusses the specifics of new methods in education and its place and role in the development of education. There are also some thoughts and comments about its importance in the modern education system.*

Keywords. *Modern education, interactive methods, knowledge, skills, methods, pedagogical technology, innovation, pedagogical skills.*

O'zbekistonda hozirgi kunga kelib ta'limga sohasida o'zgarishlar juda keng ko'lamda olib borilmoqda. Zamon talabi bilan ta'limga tizimida talabalarining, maktab o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'limga shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda muammoli o'qitish, amaliy o'yinlar interfaol ta'limga, masofali o'qitish va mahorat darslari ta'limga innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda. O'qituvchi va murabbiylarning qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'limga jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'limga olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur", – degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi[1]. Bularni hisobga olgan holda ta'limga tizimida innovatsion xarakterga ega metodlar qo'llanilishi davr talabi bo'lib qolmoqda. Ular orasida eng keng ommalashgan metodlar yagona nom bilan nomlanuvchi interfaol metodlar sanaladi.

Avvalo interfaol ta'limga nima ekanligiga to'xtalib o'tsak. "Interfaol ta'limga samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li sifatida e'tirof etilayotgan ta'limga turi va o'qitish shakli sanaladi"[2]. Ya'ni talaba va maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil



etishga asoslanuvchi ta'lrim hisoblanadi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lrim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolotlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metotlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilayotganligi hammamizga ma'lum. "Interfaol metod – ta'lrim jarayonida o'qituvchi hamda ta'lrim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro faollikni amalga oshirish orqali o'zlashtirishni faollashtirish, shaxsiy sifatlarni rivojlanтирish va samaradorlikni oshirishga yordam beradigan usul".[3]. Zamonaviy ta'lrim tizimida interfaol usullarni qo'llash ahamiyati yuqori darajada ortib bormoqda. Shu bilan birga interfaol usullarni qo'llash dars jarayonida o'quvchi-talabalarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi. "Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyatlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lrim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar".[4]. Ya'ni interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchi yoshlar va talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi Bu uslublarning o'ziga xos jihat shundaki, ular faqat pedagog, o'quvchi va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, o'zlashtiruvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etadi, o'quvchi va talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlaydi, shuningdek, talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi va pedagog va o'zlashtiruvchining hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari ta'minlab beradi. Shubhasiz, bu jarayonda o'qituvchining o'rni katta. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba va maktab o'quvchisi asosiy figuraga aylandi.

Interfaol ta'lrim metodlarining qo'llanilishi yuqorida keltirib o'tganimizdek o'zining bir nechta foydali jihatlariga ega. Ularni dars davomida qo'llanilishi talaba va maktab o'quvchilarini ruhiy jihatdan ham rivolanishiga yordam beradi. Masalan, guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash, tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish, muammoni hal qilishga ijodiy yondashish, guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish, o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish, fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhimlarini saralash, o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash kabi keng imkoniyatlarni beradi. Interfaol dars jarayonini shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha talabalar va o'quvchilar faollashishi zarur. Shuning uchun pedagoglar bir qator shartlarga rioya eta olishlari zarur. Ular: Ta'lrim jarayoniga jamoadagi barcha o'quvchilarning to'la qamrab olinishi, o'quvchilarning



soni belgilanganidan ko'p bo'lmasligi, o'quvchilarning mashg'ulotlarga ruhan tayyorliklarini inobatga olishi, o'quv xonasining stullar doira, archa, guruhlarga ajratilishi kabi shakllarda jihozlanishi, kichik guruhlarga mohirona biriktirilishi ya'ni, har bir guruhda faol, nofaol talabalarning teng miqdorda bo'lishi, topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi kabi jihatlarga jiddiy e'tibor berishi kerak. Albatta, interfaol darslarni tashkil etishning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud. o'quv-biluv jarayoni ko'plab vaqt sarflashni talab qiladi, shuningdek, interfaol mashg'ulotlarda barcha o'quvchilarni kerakligicha nazorat etib borishning imkoniyati doim ham bo'lavermaydi. Juda murakkab materiallar o'rganilayotganda o'quvchilar muammoni to'laqonli, aniq yecha olmasliklari mumkin, guruhlarda o'quv jarayoni kechayotganda kuchsiz o'quvchilarning ishtiroki tufayli kuchli o'quvchilar ham past ball yoki baho olish hollari kuzatiladi. Bunday vaziyatda biz yuqorida aytib o'tganimizdek o'qituvchining pedagogik mahorati katta ahamiyatga ega.

Interfaol metodlarning asosiy maqsad talaba yoshlar va maktab o'quvchilarining mustaqil fikrlashiga va o'zi mustaqil xulosa chiqarishiga imkon yaratib berishdir. "Bugungi kun jamiyati taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, ijodiy fikrlash, yangi innovatsyon texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi".[5]. O'quvchi va talabalarda bu salohiyatlarni shakillantirish zamонавиy metodlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lif hozirgi kunda ta'lif tizimining barcha bosqichlarida asosiy o'qitish metodi hisoblanadi. Shuningdek, interfaol metodlar bir vaqtida bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi o'quvchi-talabalarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, o'quvchilar orasida emotsiyal aloqalar o'rnatilishiga yordam berish, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ham ta'minlaydi. Shu bilan birga interfaol metod biror faoliyat yoli muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihadlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi yana shundaki, butun faoliyat o'quvchi va talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SH.M.Mirziyoyev "Taqnidid yahsil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent 2017, 45-bet



2. Z.F. SHAROPOVA, "TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" darslik. - T.: "Navro'z" nashiryoti, 2019-yil, 158-bet.
3. Sh.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova, Sh.R.Mirzayeva, M.M.Qo'ziboyeva Ta'lism texnologiyalari – Darslik. – T.: "IJODPRINT". 2020-yil, 259-bet
4. f.sh.aqchayev tarix fanini o`qitishda innovatsion texnologiyalar jizzax - 2014 y. 8-bet
5. L.R.Gaynutdinova, S.N.Alimxodjaeva, "Uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish usullari".
6. WWW.Ziyonet.Uz
7. WWW.Kitob.Uz
8. WWW.Pedagog.Uz